



# TIBBIYOTNOMA

*TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI*

*№ 4-5 2025-YIL 6-MAY  
(MAXSUS SON)*

## 9 MAY – XOTIRA VA QADRLASH KUNI

### XOTIRA – MUQADDAS, QADR – AZIZ

*Ajdodlarni xotirlash, ezgu ishlarini yodga olish, qolaversa, bu yorug' dunyoda umrguzaronlik qilib, keksalik gashtini surayotgan faxriylarimizni ardoqlash, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.*

Xotira so'zi – o'zbek tilini izohli lug'atida eslov bilan sinonim ravishda keltirilib, o'tmishni, o'tgan odamlarni, biror-bir sanani eslash, yodga olish qabilida qo'llaniladi.

Butun umri, hayoti, faoliyatini tibbiyotga baxshida etib, O'zbekiston tibbiyotiga munosib hissa qo'shgan va oramizdan oxirat sari ketgan ayrim ustozlarimiz haqida muborak xotira kunlari arafasida satrlar bitishga jazm etdik. Zero, inson xotirasi abadiy, garchi bu ustozlarimiz oramizda yo'q bo'lsalarda, ular tomonidan bitilgan kitoblar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va

monografiyalar yo'lchi yulduz bo'lib yoshlarimiz yo'llarini yoritib turadi. Kitob yozgan olimning nomayi a'moli to ro'zi mahshargacha ochiq turishi hadisi shariflarda keltirilgan.

Yurtimizda 9-may – Xotira va Qadrlash kuni sifatida nishonlanib kelayotgani buning yaqqol tasdig'idir. Asosiysi, yurtimizda tinchlik hamda osoyishtalik barobarida, inson xotirasi va qadrining shunday yuksak ulug'lanayotgani farzandlarimiz uchun tengsiz saboq hamda munosib ibrat bo'lib qoladi.

O'tganlar xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, yurtimiz

tinchligi va ravnaqi yo'lida, turli sohalar jumladan tibbiyot sohasida xizmat qilgan keksalarga alohida hurmat-e'tibor ko'rsatish xalqimizga xos azaliy qadriyatga aylangan. Har bir go'shada o'tganlar xotirasini yod olish, barhayotlarini asrab-avaylash davom etmoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasida ham bunday xayri ishlariga e'tibor qaratib kelinadi. Ilm-fan rivojiga qo'shgan o'z kasbining fidoyilari, olimlar va professorlarni sanab adog'iga yeta olmaymiz. Ilm-fan fidoyilari hamda e'tirofu ehtiromga loyiq insonlar haqidagi maqolalar bilan tanishing.



*Xotira hamisha muqaddas, qadr azizdir*



# TIBBIYOTGA BAG'ISHLANGAN MUQADDAS UMR

**Yoshlarga yo'lboshchi, hayotga rahnamolik qilgan ustoz 1960-yil 22-sentyabrda Toshkent shahrida oddiy ishchi oilasida dunyoga kelgan. Bolaligi mehnat va izlanish bilan o'tgan A.Abidov yoshlik yillaridanoq bilimga, fidokorlikka intildi.**

O'rta maktabni 1977-yilda tamomlagach, Toshkent shahridagi zavodlardan birida ish boshladi. Mehnat unga hayotning haqiqiy saboqlarini berdi. Ammo bilimga bo'lgan chanqoqlik va o'zligini topish istagi uni yangi ufqlarga yetakladi.

Vatan oldidagi burchini 1980–1982-yillarda ado etib, harbiy xizmatni sharafla bilan o'tab qaytdi. Orzulari aniq, yo'li esa maqsad sari yo'naltirilgan edi. 1982-yilda ToshDTIning davolash fakultetiga o'qishga qabul qilindi. Institutda o'qishi bilan birgalikda Toshkent shahri 1-sonli sil kasalliklari kasalxonasida o'rta tibbiyot xodimi bo'lib ishlagan. Institutdagi yillar ilm-fan va insoniyatga xizmat qilishga bo'lgan muhabbatini yanada mustahkamladi. Institutni a'lo baholar bilan bitirgandan so'ng, Shahar tez tibbiy yordam markazida (1988–1991) shifokor lavozimida ishladi. Har bir kechayu-kunduz, har bir qiyin daqiqa unga inson hayotining naqadar bebaho ekanligini yana bir bor anglatardi.

1991-yilda ToshDTI Yuqumli kasalliklar kafedrasida klinik ordinaturada bilimni oshirdi. O'z ustida tinimsiz ishlash, yangi bilimlarni egallash va boshqalar bilan baham ko'rish – bu uning hayotiy mezoniga aylandi.

Tibbiyotga umrini bag'ishlagan ustoz 1992-yilda kafedrada assistent lavozimiga tayinlandi. Bilimi va tajribasi ortib borgani sari mas'uliyati ham oshardi. Nihoyat, 1999-yilda katta o'qituvchi, 2017-yildan umrining oxirigacha

dotsentlik lavozimida ishlab keldi. 2008-yili nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Shu davr mobaynida Akrom Bo'riyevich yetuk pedagog va tajribali shifokor bo'lib, fan professor-o'qituvchilari, talabalar va hamkasblari orasida katta obro'-e'tibor qozondi. Tibbiyot sohasida faoliyat yuritgan inson sifatida xalqaro ilmiy konferensiyalarda ham faol ishtirok etgan, o'z bilim va tajribasini boshqalar bilan baham ko'rgan. Pedagogik faoliyati bilan bardavom shug'ullanib, ilmiy maqolalar, uslubiy qo'llanmalar, 10 dan ortiq o'quv qo'llanmalar yaratdi. Bundan tashqari, 150 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi. Faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri – bemorlar uchun tinimsiz mehnat qilib, ularga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish bo'lganini alohida ta'kidlash joiz.

Akrom Bo'riyevich pandemiya davrida ham bemorlar xizmatida bo'lib, eng og'ir bo'limlarda ishladi va bir necha marotaba o'zi og'ir betob bo'lishiga qaramay, shifokorlik faoliyatini davom ettirib, bir qancha insonlar hayotini saqlab qoldi. Beminnat xizmat, kasbga bo'lgan sadoqat tufayli og'ir damda ham shifokorlik burchini bajardi. O'sha davrda orttirib olingan xastaliklar umrini oxirigacha davom etib keldi, asoratli ham bedavo xastalik kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

U oliyjanob inson nafaqat bemorlar, balki talabalar orasida ham katta obro'-e'tibor qozongan o'z sohasining yetuk namoyondasi edi.



**Dotsent**  
**Abidov Akramjon Bo'riyevich**  
(1960 – 2025)

Aka-uka va opa-singillari orasida, farzandlarni yetuk mutaxassis bo'lishiga sabab bo'ldi. Oilasida ham mehribon ota, sadoqatli inson sifatida hurmat qozondi. Uning namunasida ko'plab yosh tibbiyot xodimlari o'z hayot yo'llarini tanladi va shifokorlik kasbiga bo'lgan sadoqatlarini yanada mustahkamladi. To'ng'ich o'g'li – Ikromjon otasining kasbini egallab, bemorlarga xizmat qilib kelmoqda.

Ustoz to umrining so'nggi damlariga qadar bemorlar xizmatida bo'ldi. O'zining oxirgi kunlarida ham insonlarga shifo ulashishdan charchamadi. 2025-yilning 24-mart kuni vafot etdi.

Akromjon Bo'riyevichning ilm yo'lidagi fidoyiligi, bemorlarning qalbini shifo va umid bilan to'ldirishga bo'lgan intilishi oliy hurmatga sazovor insonlardan biriga aylantirdi. Hamkasblari, shogirdlari va yaqinlari bu mehribon insonni doimo hurmat bilan xotirlaydi. Hayotini tibbiyot va ilmga bag'ishlagan bu inson qoldirgan bilim va tajribalar esa kelajak avlod uchun bebaho meros bo'lib qoladi.

**Hamidulla MAGZUMOV,**  
dotsent



*Ajdodlar matonati va jasorati  
avlodlar uchun namunadir.*



## HAQIQIY SHIFOKORGA XOS HAYOT

***Jamiyat rivoji, tibbiyot ilmining yuksalishi va inson salomatligini asrash — bu inson zotiga berilgan eng yuksak mas’uliyat va yurakdan chiqqan mehnat talab qiluvchi yo’l. Ana shunday murakkab, lekin sharafli kasb — shifokorlikni butun hayoti davomida sidqidildan ardoqlab, o’z bilim va salohiyatini beminnat insonlarga bag’ishlagan, jasur amaliyotchi, talabalar uchun yuksak bilim va tajriba manbai bo’lgan ustoz — G’aniyev Sherzod Abduvaliyevich edi.***

Sherzod Abduvaliyevich 1962-yil 22-mayda Toshkent shahrida tug’ilgan. 1985-yili Toshkent Davlat tibbiyot institutining “Davolash ishi” yo’nalishini tamomlagan va shu yillardan boshlab barcha faoliyatini tibbiyotga, xususan, amaliyotchi shifokorlik va ilmiy-ta’lim sohalariga bag’ishlagan.

1985–1987-yillarda Gospital va fakultet jarrohlik kafedrasida klinik ordinaturani o’tadi. 1987–1990-yillarda esa ana shu kafedraning aspirantura bosqichida tahsil olib, 1990-yilda “Surunkali yiringli o’pka kasalliklari bilan og’irgan bemorlarda operatsiyadan oldingi tayyorgarlikda benzonol qo’llashning klinik-farmakologik asoslari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Bu tadqiqot amaliyot uchun juda muhim bo’lgan, yuqori qo’llanilish darajasiga ega ish hisoblanadi.

Hayotda ilm va amaliyotni uyg’unlashtirish – har bir shifokorning orzusi. Sherzod Abduvaliyevich ana shunday muvaffaqiyatga erishgan kam sonli mutaxassislardan biri bo’lgan. 1991–1995-yillarda institut klinikasida jigar jarrohligi bo’limi mudiri sifatida faoliyat yuritgan. Keyinchalik, 2003-yildan boshlab TTA Fakultet va gospital jarrohlik kafedrasida dotsent lavozimida ishladi.

U har bir bemorni e’tibor bilan tinglar, aniq tashxis qo’yish, mukammal tayyorgarlik va operatsiya jarayonida yuksak

ehtiyotkorlik bilan ish tutardi. Tibbiy qarorlari bilim, tajriba va intuitsiya uyg’unligidan tug’ilgan aniq, isbotlangan yondashuvga asoslangan bo’lardir. 1995-yildan u oliy toifali jarroh sifatida tanilgan.

Sherzod G’aniyev ta’lim sohasida ham faoliyat yuritir, o’zining bilim va mahoratlarini shogirdlar bilan faol ravishda baham ko’rardi. Uning kafedradagi ma’ruzalari nafaqat bilim manbai, balki amaliy misollar va hayotiy voqealarga boy bo’lib, talabalar uchun jonli, tushunarli va ta’sirli bo’lgan.

U 35 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi sifatida faol tadqiqot ishlari olib borgan. Ilmiy qiziqishlari asosan torakal, gepatobiliar va shoshilinch jarrohlik sohalariga bag’ishlangan bo’lib, bu yo’nalishdagi tajribalari va tahlillari milliy tibbiyotimiz uchun qimmatli manba hisoblanadi.

2004-yili u B.V.Petrovskiy nomidagi RNCX RAMN bazasida malaka oshirish kurslarida ishtirok etib, xorij tajribasini o’zlashtirgan va uni mahalliy amaliyotga tatbiq etishga harakat qilgan. Bu uning doimiy izlanuvchanligi, o’z ustida ishlash va zamonaviy bilimlar bilan ishlashga intilishini yaqqol ko’rsatadi.

Hamkasblari uni halol va ishonchli inson, mazmunli suhbatdosh, uyushqoq va mas’uliyatli ustoz sifatida eslashadi. U har bir hamkasbining muammosiga e’tiborli, talabalarning so’rog’iga sabr bilan javob beradigan, doimo mehribonlik va



**Dotsent**

**G’aniyev Sherzod Abduvaliyevich  
(1962 – 2021)**

kasbiy talabchanlikni uyg’un holda olib borgan mutaxassis edi.

Shogirdlari uchun u – faqat ma’lumot berishga intiladigan o’qituvchi emas, balki to’g’ri qaror qabul qilishni o’rgatgan murabbiy, tibbiyotga fidoyi inson, doimo yutuqlar va muvaffaqiyat sari yetaklovchi yo’lboshchi edi.

Sherzod Abduvaliyevich o’zining butun hayotini insonlarga xizmat qilish, ularni darddan xalos etish va sog’lom hayot sari yetaklashga bag’ishladi. Tashxisdan to jarrohlik amaliyotigacha, yozuvchi maqolalari va talabalarga o’tkazgan mashg’ulotlarigacha, u tinimsiz ishlagan, asl shifokorday umr kechirgan.

Uning hayot yo’li o’z ortidan ilm, tajriba, sadoqat va mehnat izini qoldirgan. 2021-yil 12-avgustda Sherzod Abduvaliyevich hayotdan ko’z yumdi. Lekin uning mehnati, yozgan maqolalari, shogirdlari qalbida qolgan nasihatlar va operatsion stoldagi yuksak mas’uliyatli ishlari hech qachon unutilmaydi.

Ehtimol bilan xotirlaymiz. Xotirasi – qadrlil, xizmati – ibrat.

**Mahmud KARIMOV,  
dotsent**



*Xotira – ertani yoritguvchi nur.*



## TANIQLI OLIM, FIDOYI USTOZ QALBLARDA MANGU YASHAYDI

**Professor Yulbarisov Abduljalil Vaxidovich — taniqli olim, nur tashxisi sohasida yurtimizda o‘z maktabini yaratgan fidoyi ustozlardan biri, O‘zbekiston tibbiyotining zabardast vakili, 2-Toshkent Davlat Tibbiyot Instituti Nur tashxisi kafedrasida mudiri sifatida faoliyat olib borgan.**

Professor Yulbarisov Abduljalil Vaxidovich — taniqli olim, nur tashxisi sohasida yurtimizda o‘z maktabini yaratgan fidoyi ustozlardan biri, O‘zbekiston tibbiyotining zabardast vakili, 2-Toshkent Davlat Tibbiyot Instituti Nur tashxisi kafedrasida mudiri sifatida faoliyat olib borgan.

U 1949-yilda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tamomlab, 1972-yilda Toshkent Davlat Tibbiyot Institutini muvaffaqiyatli yakunlagan. Ilmga chanqoqligi uni 1982-yilda Sankt-Peterburgga aspiranturaga yetakladi. U yerda “Limfa tugunlari kasalliklarida radionuklid tekshirish usullarining o‘rni” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Mehnat faoliyatini Nur tashxisi kafedrasida assistent sifatida boshlab, 1994-yilda Sankt-Peterburgdagi Radiologiya ilmiy markazida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. Tinimsiz harakat natijasida professorlik ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan. Shu yildan boshlab, Ikkinchi Toshkent Davlat Tibbiyot institutida pedagogik va ilmiy faoliyatini davom ettirgan. 1998-yildan boshlab, nur tashxisi va nur

terapiyasi kafedrasiga mudirlik qilgan.

Ustozning ustozligi, ilm, kasb va shogirdlarga sadoqati har bir so‘zida, har bir ma‘ruzasida, har bir ilmiy maqolasida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ko‘plab ilmiy kadrlar, tibbiyot fanlari nomzodlari va doktorlari uning rahbarligida yetishib chiqqan. Ular bugungi kunda radiologiya sohasini xalqaro standartlar darajasiga olib chiqishda o‘z hissalarini qo‘shmoqda. Abduljalil Yulbarisov o‘zining ilmiy faoliyati davomida 100 dan ziyod maqola va ilmiy-ommabop ishlar, 30 dan ortiq darslik va monografiyalar muallifi bo‘lgan. Uning ishlari milliy va xalqaro simpozium, kongresslarda muvaffaqiyatli taqdim qilingan.

Olimning yaratgan radiologiya maktabi nafaqat respublikada, balki Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham tan olingan. Ilmiy izlanishlari radionuklidlar yordamida tashxis va davo usullarini takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Abduljalil Vaxidovichning shogirdlari orasida hozirda nufuzli professorlar, doktorlar, kafedra mudirlari, radiologiya markazlari rahbarlari bor.



Professor  
Yulbarisov Abduljalil Vaxidovich  
(1949 – 2006)

Shogirdlar ustozlari qoldirgan ilmiy merosni munosib davom ettirmoqda. Kamtarlik, bag‘rikenglik, insoniylik, so‘z va amaldagi ibrat — shogirdlari qalbida abadiy o‘rin olgan. Ilmga sadoqati va o‘quvchilarga bo‘lgan mehri yurt ravnaqi uchun xizmat qilganini alohida ta’kidlash joiz. A.Yulbarisovning ilmiy merosi, yaratgan maktabi va tarbiyalagan shogirdlari — uning hayotidagi eng katta muvaffaqiyati edi. Ustozning dunyodan ko‘z yumishi nafaqat yaqinlari, balki butun tibbiyot jamoasi uchun katta yo‘qotish bo‘ldi.

Bugun biz u kishini chuqur hurmat, minnatdorlik va ehtirom bilan yodga olamiz. Professor A.Yulbarisovning yorqin xotirasi qalblarimizda mangu yashaydi.

**Alijon FAQIROV,**  
Turon xalq yozuvchisi,  
akademik



*Inson, millat va xalq tarixiy xotira  
tuyg‘usi bilan barhayotdir.*



# MOHIR PEDAGOG, BILIMLI SHIFOKOR, O'Z ISHINING USTASI EDI...

**Muzrabekov Shavkat Murtazayevich 1939-yili 18-oktyabrda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga keldi. Shavkat Murtazayevich bolalik davridanoq tibbiyot kasbiga mehr qo'ydi. Shuning uchun ham u o'rta maktabni tugatgach, hech ikkilanmay hujjatlarini Toshkent tibbiyot bilim yurtiga o'qishga topshirdi va uni 1960-yilda a'lo baholar bilan tugatdi.**

So'ng 1960-1962 yillarda Respublika ruhiy kasalliklar klinikasida o'rta meditsina xodimi sifatida ishladi va tajriba ortirdi. Bilimga chanqoq bo'lgan yosh Shavkat vrachlik kasbini egallash maqsadida 1962-yili Toshkent Davlat tibbiyot institutiga o'qishga kirdi va uni 1968-yilda muvaffaqiyatli tamomladi. Qobiliyatli bitiruvchini ToshDavMI rahbariyati farmakologiya kafedrasiga ilmiy ish bilan shug'ullanish uchun yubordi. Yosh olim 1970-1973 yillarda farmakologiya kafedrasida aspiranturada o'qidi va 1973-yilda «Vliyaniye TMTD na deystvie nekotorix lekarstvennix veshestv metaboliziruyushixsya v pecheni» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Sh.Muzrabekov 1973-yildan 1984-yilgacha farmakologiya kafedrasida assistenti, 1984-yildan 1991-yilgacha esa klinik farmakologiya kafedrasida assistenti lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

1990-yilda Toshkent Davlat tibbiyot instituti negizida ikkita mustaqil – Birinchi va Ikkinchi

Toshkent tibbiyot institutlari tashkil qilinishi munosabati bilan klinik farmakologiya kafedrasida ham ikkita mustaqil kafedraga bo'lindi va Shavkat Murtazayevich 1-ToshDavTI klinik farmakologiya kafedrasida dotsenti lavozimiga saylandi. U umrining oxirigacha shu kafedrada o'zining boy tajribasini talaba-yoshlarga ulashdi. Sh.Muzrabekov doimo o'z bilimlarini oshirib borishga intildi. Shu maqsadda Moskva, Leningrad, Kiyev shaharlarida o'z pedagoglik malakasini oshirdi. Ustoz nafaqat mohir pedagog edi, balki u bilimdon, tashkilotchi va talabalar murabbiysi ham edi. Uzoq yillar mobaynida dekan o'rinbosari sifatida ToshDavMI talabalarining o'quv jarayonini tashkil qildi va ularning kamol topishida muhim rol o'ynadi. Unga qanday vazifa topshirilishiga qaramay, u topshiriqlarni a'lo darajada bajarishga sidqidildan yondashdi. Ayniqsa, o'sha davrlarga xos bo'lgan paxta yig'im-terimi davrlarida eng jonboz xodim sifatida tanildi,



Dotsent  
Muzrabekov Shavkat Murtazayevich  
(1939 – 2015)

talabalarining chet ellarda tashkil qilinadigan yozgi amaliyotini tashkillashtirish va amalga oshirishda uning xizmatlari beqiyos.

Sh.Muzrabekov 150 dan ziyod ilmiy maqolalar, 14 ta o'quv va uslubiy qo'llanmalar muallifidir. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimidagi hamda talaba-yoshlar tarbiyasida ko'rsatgan xizmatlari uchun 2014-yilda Sh.Muzrabekov "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. U 2015-yil 17-noyabrda vafot etdi. Mohir pedagog, bilimli shifokor, o'z ishining ustasi Shavkat Murtazayevich Muzrabekov xotirasi abadiy qalblarda qoldi.

**Ziyovuddin HAKIMOV,  
tibbiyot fanlari doktori,  
professor**



*Qadr – insonni yuksaklikka ko'taradi.*



## QUYOSHLI QALB SOHIBASI EDI...

*Inson hayotida shunday zotlar bo'ladiki, ularning qiyofasini eslar ekansiz, ko'nglingizga nur yog'ilib, qalbingizga halovat inadi. Ularning hayoti, faoliyati, insonlarga bo'lgan munosabati har bir yurakka ta'sir o'tkazadi. Ana shunday insonlardan biri, millatimiz tibbiyoti ravnaqiga katta hissa qo'shgan, uzoq yillar davomida shogirdlar tarbiyalab, ular qalbidagi mehr va ilhom urug'ini sepgan, betakror ustoz — dotsent Naziraxon Sultonova edilar.*

Nazira Gulomqodirovna 1939-yilda dunyoga kelib, 1962-yili Toshkent tibbiyot institutining davolash fakultetini imtiyozli diplom bilan yakunladi. Shundan so'ng, ilmiy va amaliy faoliyatini shu muassasaning ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasidan boshlab, klinik ordinator sifatida ishga kirishdi. Ilmga muhabbati, izlanishlarga bo'lgan intilishi tufayli 1970-yilda fan nomzodi ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldi. Bu ilmiy yutuq uning pedagogik yo'lini yanada mustahkamladi.

1980–1987-yillarda davolash fakultetining ichki kasalliklar kafedrasida assistent, 1987–2011-yillar mobaynida sanitariya-gigiyena fakultetining ichki kasalliklar kafedrasida dotsent sifatida samarali mehnat qildi. Oradan o'tgan yillar mobaynida u nafaqat pedagog, balki ma'naviyat tashviqotchisi, uyushma va jamoat faoliyatining yetakchi ishtirokchisi sifatida ham tanildi. TTAda ayollar qo'mitasi a'zosi, Davlat attestatsiya komissiyasining mas'ul kotibi, kafedrada o'quv va davolash ishlari bo'yicha mas'ul, shuningdek, talabalarning mehribon murrabiysi sifatida faol xizmat qildi.

Naziraxon opa nafaqat ilmiy salohiyati bilan, balki insonparvarligi, mehribonligi, qalbidagi nur bilan ham har bir

inson qalbiga yo'l topa olardi. U zotning qalbi tiniq buloqdek edi — har kim undan ezgu so'z, shirin maslahat va chin dilidan chiqqan duo olgan. Talabalik yillarida ustozning darslariga qatnashganlar, ularning har bir nasihatini hayot dasturiga aylantirgan. Aynan ustozning navbatchiligi kuniga tushishni kutgan talabalar bor edi. Bu — bilimdan tashqari mehr-muomala bilan tarbiyalashning yorqin namunasidir.

Naziraxon Sultonova butun umri davomida tinimsiz ijod qildi: 300 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar, tezislari, 10 dan ziyod uslubiy qo'llanmalar, 20 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflari va ixtirolar — bu yuksak salohiyat, mehnatsevarlik va vatanparvarlik timsoli edi.

Ammo u faqat ilm dunyosida emas, balki haqiqiy ma'nodagi insonparvar ayol, oilaparvar va vafodor do'st sifatida ham yuksak e'zozga sazovor edi. U kishi og'ir dardga chalingan ota yoki onasi uchun tashvish chekkan shogirdlarining uyiga muntazam borib, keksalarning ahvolidan xabar olgan, dardini yengillatgan, samimiy suhbatlari orqali umid baxsh etgan. Qalbidagi shu'la har bir yurakka nur taratar, har bir xonadonga baraka olib kirib, insonlarga yashash quvvatini ulashar edi.



**Dotsent**  
**Sultonova Naziraxon**  
**Gulomqodirovna**  
**(1939 – 2020)**

Mana shunday hayotiy voqealar ustozning insoniy fazilatlarini yanada yorqinroq namoyon qiladi. Ular shunchalik samimiy va bag'rikeng edildiki, hatto bemorlar ustozni "bizning katta qizimiz", "haqiqiy shifokor" deb ataganlar. Bu — oddiy maqtov emas, balki qalbdan chiqqan samimiy e'tirof edi.

Naziraxon opa butun hayoti davomida so'z va ish birligini qadrlab yashadilar. Ular shifokorlik va ijodkorlikni uyg'unlashtirib, ilm yo'lida minglab maqola, tezis, risola, darslik va tadqiqotlar qoldirdilar.

Naziraxon Sultonovaning hayoti — bir bog'liq kitob, har sahifasi izzat va mehrga to'la. U zot o'rgatgan saboqlar, yozib qoldirgan ilmiy ishlar, tarbiyalagan shogirdlar — bularning barchasi bugungi va ertangi avlodga nur tarqatayotgan ma'naviy merosdir.

Ustozning oxiratlari obod bo'lsin!

**Qutbiddin NIZOMOV,**  
**“Eng ulug' ustoz” ko'krak**  
**nishoni sohibi**



*Ajdodlarni xotirlash va keksalarni e'zozlash, ulug' qadriyat.*



# ILM VA INSONIYLIK UYG'UNLIGIDA O'TGAN UMR

***Tibbiyot fanida shunday yuksak salohiyatli olimlar bo'ladiki, ularning nomi nafaqat ilmiy asarlar sahifalarida balki insonlar qalbida muhrlanib qoladi. Bu yurt farzandi, o'z shogirdlari va hamkasblari uchun hayotiy namuna, xalq hurmatini qozongan olim va inson sifatida nom qozongan — professor Umarov Ravshan Hamidullayevich ana shundaylardan edi.***

Ustoz hayoti va ilmiy faoliyati davomida nafaqat yetuk mutaxassis, balki muruvvatli ustoz, maslahatgo'y yo'lboshchi, tashkilotchi va samimiy inson sifatida ham yaqinlari, shogirdlari va butun jamoatchilik qalbida o'chmas iz qoldirgan.

Ravshan Umarov 1980-yili O'rta Osiyo Pediatriya tibbiyot institutini muvaffaqiyatli tamomlagan. Birinchi mehnat faoliyatini reanimatsiya bo'limida shifokor sifatida boshlab, hayot uchun kurash nuqtasida shifokorlik burchini ado etdi. Bu davr unda nafaqat kasbiy bilim, balki insonparvarlik, mas'uliyat va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirdi. 1986-yildan boshlab umrining qolgan qismini ta'lim va ilm yo'lga bag'ishladi.

Oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari kafedrasida assistent, so'ngra dotsent va professor sifatida faoliyat yuritib, kafedraning ilmiy salohiyatini mustahkamlashga beqiyos hissa qo'shdi.

2002-yili "Turli shakldagi glomerulonefritlarda markaziy va periferik qon aylanishi holati hamda qonning reologik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Ilmiy rahbarlari taniqli olimlar — professor X.Karimov va professor I.Karimjonov edi.

Ustozning ilmiy ishlari bolalarda keng tarqalgan buyrak kasalliklari, gipertenziyani erta aniqlash va samarali davolash, qondagi o'zgarishlarni klinik va laborator o'lchovlar asosida tahlil qilishga qaratilgan. Uning tadqiqotlari

biotibbiyotda zamonaviy yutuqlarni — biokimyo, morfologiya, immunologiya va molekulyar biologiya bilimlari bilan boyitilgan bo'lib, har bir ilmiy ishida amaliyotga tatbiq etish asosiy mezon bo'lgan.

U shunchaki nazariyachi olim emas, balki amaliy tibbiyotda o'z yechimini topgan, natijasi bemorlar salomatligida aks etgan tadqiqotlar muallifi edi. Uning ilmiy-amaliy qarashlari sog'liqni saqlash tizimining talablari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir ishi hayotdan olingan, hayotga qaytarilgan.

100 dan ortiq ilmiy ish, 16 ta o'quv-uslubiy qo'llanma va 4 ta patent muallifi sifatida ham u o'z maktabini yarata oldi. Domla rahbarligida bir nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan, ikkitasi tayyorlangan.

Professor R.Umarov nafaqat ilm sohasida, balki pedagogikada ham ulkan yutuqlarga erishdi. U o'quv jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarini joriy etish, talaba shaxsiga individual yondashuv, klinik fikrlashni shakllantirish kabi dolzarb masalalarni doim ustuvor vazifa deb bilgan.

TTA qabul hay'atida mas'ul kotib, tibbiyot-pedagogika fakulteti dekan muovini sifatida mas'uliyatli tashkilotchilik ishlarini olib borgan. Ilm-fan yo'nalishida TTA Ilmiy Kengashi va ToshPMI ixtisoslashtirilgan Kengash a'zosi sifatida faol ishtirok etgan. Bu vazifalarni u doim bilim, tajriba va vatanparvarlik tuyg'usi bilan ado etgan.

Uning shogirdlari bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki xorijda ham ilmiy-tadqiqot ishlanmalariga rahbarlik qilishmoqda. Ular ustozining mehribon qo'li, daqiq talabi va qalbdan



**Professor  
Umarov Ravshan Hamidullayevich  
(1956 – 2014)**

berilgan maslahatlarini hali ham ardoqlab eslashadi.

Ravshan Umarov hayoti davomida insoniy fazilatlarini bilan ham hammaning e'tiborini qozongan inson edi. U nafaqat talabalar, balki oddiy bemorlar bilan ham samimiy, bag'rikeng va insoniy munosabatda bo'lar, hamkasblari orasida o'zining halolligi va odob-axloqi bilan ajralib turardi.

Uning muhimi — doim haqiqatni ayta olishi, har bir inson dardini yuragi bilan his eta olishi edi. Ana shu fazilatlarini bois u jamoa orasida katta hurmat qozongan, hamkasblari orasida suyuqlik ustozga aylangan.

Olim, tashkilotchi, mohir pedagog va yuqori malakali shifokor sifatida R.Umarov hayotini Vatanimiz sog'liqni saqlash tizimi ravnaqiga bag'ishladi. Uning faoliyati – bu faqat statistik raqamlar yoki maqolalar soni emas, balki ijtimoiy qadriyatlar, odamlarga xizmat, bolalar hayoti uchun kurash, insonparvarlikning amaliy timsoli edi.

2014-yili yurtimiz yana bir buyuk ustozdan, fazilatli insondan ayrildi. Ammo uning ismi, ilmiy merosi va qalblarda qolgan samimiy munosabatlari abadiy yashaydi.

**Ilhom KARIMJONOV,  
tibbiyot fanlari doktori,  
professor**



*Inson bor ekan, xotira quyoshi abadiy  
nur sochaveradi.*



# HAYOTINI INSON SALOMATLIGIGA BAG'ISHLAGAN FIDOYI OLIM

**Har bir kasbning o'ziga xos muqaddasligi bor. Ammo inson salomatligiga xizmat qilishdek sharafli, shu bilan birga mas'uliyatli yo'lni tanlaganlar qalbi, niyati va intilishi yuksak bo'lishi shart.**

Professor Abdumalik Mahmudovich Hakimov mana shunday insonlardan edi – har bir qadamida insoniylik, fidoyilik va ilmiy salobat mujassam bo'lgan shaxs.

U 1941-yilda tavallud topdi. Oradan yillar o'tib, o'z ishiga sadoqat bilan xizmat qilgan, ilm-fan maydonida o'z maktabini yaratgan, minglab talabalar, shifokorlar, bemorlar xotirasida mehribon, halol olim va kuchli tashkilotchi sifatida saqlanib qolgan ustozga aylandi. Umrining butun yo'li ilm, shifo va jamiyat oldidagi mas'uliyatga to'la edi.

Abdumalik Mahmudovich Toshkent Davlat Tibbiyot Institutining davolash fakultetini 1964-yilda tugatdi. Shundan so'ng 1970-yilgacha Belorussiya, Vengriya va Chexoslovakiya davlatlarida harbiy shifokor sifatida xizmat qildi. Bu yillar uning tibbiyotdagi ilk tajriba maktabi bo'ldi. Turli mamlakatlardagi harbiy sharoitlarda orttirilgan tajriba keyinchalik tinchlik sharoitida bemorlar salomatligini tiklashda, yosh kadrlarni yetishtirishda beqiyos asos bo'lib xizmat qildi.

1970-yildan boshlab ToshDavTIdagi LOR klinikasida faoliyat boshladi. Dastlab ordinator, keyin aspirant, assistent, dotsent, professor va kafedra mudiri lavozimlariga ko'tarildi. U ilmiy izlanishlar, amaliy tajriba, pedagogik faoliyat va tashkilotchilikni bir yo'la olib borar edi. Ayniqsa, 1989–2000-yillar oralig'ida dekan

muovini va davolash fakulteti dekani sifatida yosh kadrlarni tayyorlash, kafedra faoliyatini takomillashtirish borasida katta yutuqlarga erishdi.

1992-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan Abdumalik Mahmudovich ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishini ichki quloq kasalliklari, eshitish va vestibulyar analizator patologiyasini chuqur o'rganishga bag'ishladi. Bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

Professor A.Hakimov ilmiy jamoada hamisha fidoyilik bilan ishlagan, o'z tajribasi va bilimlarini ayamasdan ulashgan olim edi. Uning rahbarligida 3 ta doktorlik, 14 ta nomzodlik dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilindi. U ilm-fan taraqqiyotiga 1 ta darslik, 20 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar va 3 ta muhim ixtiro bilan hissa qo'shdi.

2005-yilda Toshkent tibbiyot akademiyasi tashkil topganidan so'ng LOR kasalliklari yo'nalishi bo'yicha mavjud 2 kafedra birlashtirilib, yangilangan Otorinolarinologiya kafedrasini tuzildi. Bu mas'uliyatli lavozimga yana professor A.Hakimov tayinlandi. U 2011-yilga qadar bu lavozimda ishlagan va kafedrani kuchli ilmiy, o'quv-uslubiy maktabga aylantira oldi. Shuningdek, uzoq yillar davomida O'zbekiston Otorinolarinologlar Assotsiatsiyasi raisi, Sog'liqni saqlash vazirligining bosh mutaxassisi sifatida faoliyat



**Professor  
Hakimov Abdumalik Mahmudovich  
(1941 – 2020)**

yuritib, butun respublika bo'ylab sohaga oid islohotlarni ilgari surdi.

Ustoz shifokor sifatida o'z umrining har lazasini kasbga sadoqat bilan yashadi. Tibbiyotdagi xizmatlari uchun ikki marotaba "Sog'liqni saqlash a'lochisi" nishoni, O'zbekiston sog'liqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy Kengashining Faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi.

Abdumalik Hakimov 2020-yilda hayotdan ko'z yumdi. Ammo uning hayoti, ilmiy merosi, ezgu ishlari o'zbek tibbiyotining faxri, shifokorlar va talabalar uchun ibrat maktabi bo'lib qolaveradi.

Bugun biz ustozni yodga olar ekanmiz, u yaratgan ilmiy maktab, tarbiyalab yetishtirgan shogirdlari, shifo topgan minglab bemorlar, kuchli tashkilotchi va murabbiy sifatidagi xizmatlari bilan undan minnatdormiz. Ustozning nomi va hayoti doimo ehtirom bilan eslanadi.

**Xolida SHAYKOVA,  
tibbiyot fanlari doktori,  
professor**



*Keksalarni e'zozlash ulug' qadriyat.*



## ILM, LATOFAT VA SHIFOKORLIK UYG'UNLIGI

***Inson umrida shunday mehnatkashlar bo'ladiki, ularning hayoti, yashash uslubi, insonlarga bo'lgan munosabati butun umrini odamlar dardiga baxshida qilgan zotlar qatoriga qo'shiladi. Dotsent Dilora Usmonboboyevna Xanbabayeva ana shunday nodir ayollardan edi – u nainki bilimdon shifokor va ilmiy izlanuvchi, balki ayol sifatida latofat va nazokat bilan yashash, muruvvat bilan xizmat qilish namunasi edi.***

Ayol sifatidagi noziklik – shifokor sifatidagi baquvvatlik bilan uyg'un edi. 1951-yili Toshkent shahrida dunyoga kelgan Dilora Usmonboboyevna bolalik chog'idanoq oqila, mehnatsevar va halollikni qadrlagan insonlar orasida tarbiya topdi. 1969-yili o'rta maktabni a'lo baholar bilan yakunlab, shu yiliyiq Toshkent Davlat Tibbiyot institutiga o'qishga kirdi. Bu tanlov uning butun hayotiga yo'l ochgan, tinmas mehnat va ilmiy izlanish bilan to'ldirgan muhim bosqich edi.

1976-yili institutni muvaffaqiyatli tamomlaganidan so'ng, Dilora Usmonboboyevna mehnat faoliyatini Toshkent Davlat Tibbiyot institutining 2-klinikasida allergolog sifatida boshladi. U qisqa fursatda o'zini bilimli, mas'uliyatli va yaxshi tashkilotchi sifatida namoyon qilib, allergologiya bo'limi rahbari lavozimiga tayinlandi.

Bu sohada ayol kishi uchun jismonan ham, ma'nan ham mas'uliyat og'ir. Ammo u bu og'irlikni shijoat, mehr va latofat bilan yengardi. U har bir bemorni yuragi bilan tinglar, bola kasal bo'lsa, o'z farzandidek qarar, har bir tashxisda onalik intuitsiyasini ham qo'llar edi.

Ilmga chanqoq qalb egasi Dilora Usmonboboyevna juda yutuqli amaliyotchi shifokor bo'lishiga qaramasdan, ilm maydonini ham har doim qadrlardi. U doim

yangilikka intilar, bilim bilan birga tadqiqot ham insonni yetarli darajada yetishtirishiga ishonardi.

2004-yili u pediatriya va allergologiya-immunologiya yo'nalishlarini qamrab olgan murakkab va dolzarb mavzuda – “Xavf omillari va bolalarda dori allergiyasining o'ziga xos bo'lmagan giposensibilizatsiyasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning tadqiqoti respublikamizda bolalar allergiyasi sohasidagi ilmiy va amaliy ishlarda muhim o'rin tutadi.

Bu ishlar orqali u nafaqat amaliyotdagi muammolarni yechishga harakat qildi, balki kelajak shifokorlar uchun ilm manbai yaratdi. Uni ilmga chanqoq qalb deb atash mumkin – u har doim yangilikka ochiq, o'rganishga tayyor va o'rgatishga shay ustoz edi.

2002–2012-yillarda Dilora Usmonboboyevna Oilaviy tibbiyot va bolalar kasalliklari kafedrasida dotsent sifatida faoliyat yuritdi. U dars berar ekan, talabalar u kishining tushunarli, ravon va samimiy uslubidan, hayotiy misollarga boy suhbatlaridan zavq olishardi.

Shogirdlar uni nafaqat fanni o'rgatgan o'qituvchi, balki mehribon ustoz, mehnatsevar ayol, hayotiy fikrlarni baham ko'ra oladigan maslahatgo'y sifatida xotirlaydi. U har bir talabaning qobiliyatini ko'rar, ularni ruhlantirar va qo'llab-



**Dotsent  
Xanbabayeva Dilora  
Usmonboboyevna  
(1951 – 2012)**

quvvatlardi. Uning 30 dan ortiq ilmiy ishlari, jumladan 1 monografiya, 20 dan ortiq maqola, bir necha uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar ana shu mehnat va ilmiy faoliyat samarasidir. U qancha klinik ordinator va rezidentlar uchun yo'l boshchi bo'ldi – bugungi kunda ular sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yuritib kelishmoqda.

2012-yilda Dilora Usmonboboyevna hayot bilan vidolashdi. Ammo u kishi qoldirgan mehnat, ilm, shifokorlikdagi poklik, ayollikdagi latofat, pedagogikadagi muhabbat hanuz tirik. Uni bilganlar uning ovozi, tabassumli qarashlari, har bir jumlasining ta'sirini bugun ham yodda saqlashadi.

Undan bilim olganlar uchun u umr bo'yi ibrat. U bilan yelkama-yelka ishlaganlar uchun – munosib hamkasb. Uning nomini tilak bilan yodga oladiganlar uchun esa – hurmat timsoli.

Qalblarga nur ulagan, ilm bilan tirishqoqlikni birlashtirgan ayol shifokor sifatida xotiralarda abadiy saqlanadi.

**Fotima IRSALIYEVA,  
tibbiyot fanlari doktori,  
professor**



*Xotira va Qadr hech qachon  
eskirmaydigan tuyg'u.*



## ILM, INSONIYAT VA SHE'RIYATNING MUFASSAL BIRLIGI



**Professor  
Sharopova Matluba Xusanovna  
(1961 – 2011)**

*M.Sharopovaning  
“NIHOYAT...”  
she'riy to'plamidan*

*Igna bilan quduq qazigan,  
Olimni “yupun” deb kularlar.  
Zero, gavhar bilimi bilan,  
To'plashni bilmas u simu-zar.*



**Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan olim, shifokor va shoir. Uning hayoti va ilmiy merosi, o'ziga xos tarzda, tibbiyot va adabiyotning uyg'unligini ifodalaydi, odamiylik va ustozlik maqsadlariga bo'lgan sadoqatini ham namoyon etadi.**

Matlubaxon Sharopova Samarqand tibbiyot institutini tamomlagach, o'zining ilmiy izlanishlarini davom ettirish uchun Toshkent tibbiyot institutining Bolalar kasalliklari kafedrasida doktoranturaga kiradi. 2005-yildan 2011-yilgacha Toshkent tibbiyot akademiyasida tibbiyot fanlari doktori, professor lavozimlarida faoliyat olib borgan. U tibbiyotning rivojiga hissa qo'shib, ko'plab ilmiy maqolalar, uslubiy tavsianomalar, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratdi.

Matlubaxon Sharopova o'zining bilimli, tajribali va insonparvar shifokor sifatida ko'plab yosh shifokorlarga ustozlik qilgan, shuningdek, tibbiyotning nozik jihatlari haqida chuqur bilim va tajriba yig'gan. Uning ustozlik yo'li, so'zsiz, ko'plab shogirdlar uchun o'rnak bo'lib qolgan. Biroq Matlubaxon faqat tibbiyot sohasida emas, balki adabiyotda ham o'zining mohir ijodkorligini namoyon

etdi. Oilasida adabiyotga bo'lgan alohida mehrni qadrlagan va bu muhabbatni o'zining shaxsiy hayotiga ham singdirgan. Shifokorlik kasbi bilan birga she'riyatga bo'lgan sevgi va o'ziga xos tashbehlar bilan qalb tuyg'ularini ifodalash unga o'ziga xos bir nurni beradi. U o'zining “Kel, ko'ngilga aso bo'l, mehr” nomli she'riy kitobida inson qalbining eng nozik tuyg'ularini va hayotga muhabbat ruhini ifodalaydi. Bu she'rlar, falsafiy umumlashmalar va tuyg'ular bilan boyitilgan, har birining orqasida chuqur ma'no yotadi.

2011-yil 4-aprel kuni Matlubaxon Sharopova hayotdan ko'z yumdi, lekin uning ilmiy merosi va she'riyati bugun ham ko'plab insonlarning qalbida yashamoqda. U o'zining ilmiy va insoniy fazilatlarini bilan nafaqat soha mutaxassislari, balki ko'plab talabalar va bemorlar uchun ham ustoz, qo'llab-quvvatlovchi bo'lib qolgan. Matlubaxon Sharopova - nafaqat ilm-fan sohasidagi yuksak namunaviy figura, balki insoniylik va ustozlik maqsadlarining mukammal ifodasi. Uning hayoti va merosi, har bir sohada o'zgarishlar kiritish va yuqori axloqiy me'yorlarni o'zida mujassamlashtirishga qaratilgan yuksak maqsadlar bilan ajralib turadi.

## ILM VA MA'NAVIYATGA BAG'ISHLANGAN HAYOT



**Dotsent  
Qodirova Ma'suda  
Abdulkarimovna  
(1942 – 2022)**

**Qodirova  
Ma'suda  
Abdulkarimovna  
– fidoyi olim,  
mohir pedagog va  
nurli ma'naviyat  
sohibasi sifatida  
tibbiyot sohasi  
hamda oliy ta'lim  
tizimida o'chmas iz  
qoldirgan zabardast  
ayol edi.**

U 1942-yili 11-fevralda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. 1960-yil 119-sonli o'rta maktabni tugatib, bilimga chanqoqligini namoyon etgan.

1966-yilda Toshkent farmatsevtika institutini muvaffaqiyatli tamomlagach, ilm-fan sohasida faoliyatini boshlagan. 1967-yildan boshlab Toshkent davlat tibbiyot instituti markaziy ilmiy tekshirish laboratoriyasining “Fiziologiya” bo'limida kichik ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritgan. Ilmiy izlanishlari samarasi o'laroq, 1976-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Keyinchalik, 2-Toshkent davlat tibbiyot institutining “Biokimyo” va “Normal fiziologiya” kafedralarida assistent, so'ngra dotsent sifatida faoliyat yuritgan. O'z sohasiga yuksak sadoqat bilan xizmat qilgan Ma'suda opa 60 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi sifatida ilmiy jamoatchilik orasida e'tirof topgan.

Ustozning pedagogik faoliyati bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy ishlardagi faolligi ham alohida e'tiborga loyiq. U uzoq yillar davomida institutning ma'naviyat bo'yicha prorektori yordamchisi sifatida talabalarning ma'naviy tarbiyasida, shuningdek, xotin-qizlar qo'mitasining a'zosi sifatida ayollar bilan ishlashda faol qatnashgan.

Ma'suda Abdulkarimovna nafaqat dars beruvchi, balki yoshlar qalbiga yo'l topa oladigan ustoz, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi jonkuyar inson edi. U Toshkent tibbiyot akademiyasida universiada kabi ko'plab sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlarning tashkilotchisi, tashabbuskorlaridan biri bo'lgan.

Yorqin xotira, halollik, fidoyilik, ma'rifatparvarlik — bu sifatlarga ega bo'lgan Qodirova Ma'suda Abdulkarimovna hayoti bugungi yosh avlod uchun ibrat maktabidir. Uning ilm-fan, talabalar, yurt istiqboliga bag'ishlangan umri abadiy hurmat bilan yodga olinadi.

**Sahifa materiallarini  
Odiljon JOMURODOV,  
Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat  
bo'limi uslubchisi tayyorladi**



*Nuroniylarimiz e'zozlanishi  
xalqimizga xos qadriyatlar ko'zgu  
sanaladi.*



## QADR – INSONNI YUKSAKLIKKA KO'TARADI

Ajdodlarni xotirlash va keksalarni e'zozlash, ulug' qadriyat hisoblanib, bu borada mamlakatimizda har yili qabul qilinayotgan dasturlarda yoshi ulug', nuroniylarga bo'lgan hurmat, e'tibor diqqat markazidir.

Qadr – insonni yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag'ishlaydi.

Qadrlash (qadr, qadriyat) – o'zbek tilining izohli lug'atida biror-bir inson, sana, marosimni hurmatini boshqalardan

balandroq ko'targan holda maromiga yetkazish, qiymatini ko'tarish ma'nolarida keltiriladi.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan biz ko'p yillar mobaynida Akademiyamizda faoliyat yuritib, ayni kunlarda keksalik gashtini surayotgan ustozlarimiz haqida satrlar bitishga jazm etdik. "Tibbiyotnoma" ro'znomasi mo'jazzgina bo'lgani bois ayrim ustozlar haqida satrlar bitildi, aksari ularning har birlarini alohida kitob qilib chop ettirgan bo'lsak-da ozlik qiladi.

### TIBBIY TA'LIM TARAQQIYOTIGA KATTA HISSA QO'SHGAN OLIM

**Ilm-ma'rifat ziyosini tarqatish va shifokorlik qadimdan ezgu amal hisoblanadi. Ustozlar tufayli insonlar saodatga yetkazuvchi oqilona yo'lni hayotlarida topadi. Shifokorlar esa tibbiyotning dolzarb masalalarini chuqur o'rganib, bemorlarga shifo beradi va odamlarning salomatligini saqlashdek oliy himmatli vazifalarni bajaradi.**

Sh.Zokirxo'jayev 1974-yilda Toshkent Davlat tibbiyot institutining davolash fakultetini tamomlab, klinik, pedagogik va shifokorlik faoliyatida katta muvaffaqiyatlarga erishgan. 1981-yilda fan nomzodi, 1992-yilda fan doktori ilmiy darajalarini, 1994-yilda "Ichki kasalliklar propedevtikasi" kafedrasini professori, 1998-yilda esa shu kafedraning mudiri lavozimida faoliyat yuritgan.

1996–2000 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Diyetologiya ilmiy markazi direktori o'rinbosari lavozimida ishlagan. Professor Sh.Zokirxo'jayev jamoat ishlarida ham faol faoliyat ko'rsatib, Toshkent Davlat 2-Tibbiyot institutining davolash fakultetida dekan, TTA ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori, O'zbekiston Respublikasi Xalqaro Ibn Sino jamoat fondi raisi sifatida ish olib borgan.

Shuningdek, TTAning diyetologiya va o'quv-ilmiy markazi direktori lavozimida ishlab, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Oliy attestatsiya hay'atida ekspert va kengash a'zosi sifatida faoliyat yuritgan.

Sh.Zokirxo'jayev tomonidan 500 dan ortiq ilmiy maqolalar, 85 ta ommabop maqola, 12 ta darslik va o'quv qo'llanmalar, 8 ta monografiya hamda 6 ta ma'naviy-ma'rifiy kitoblar nashr etilgan. Ilmiy ishlari xalqaro anjumanlarda – Rossiya, Turkiya, Hindiston, Janubiy

Koreya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Gretsiya, Polsha kabi davlatlarda taqdim etilgan.

Ilmiy-pedagogik va shifokorlik faoliyati natijalariga ko'ra Sh.Zokirxo'jayev:

- Rossiya Tibbiy-texnika akademiyasining akademigi,

- Yevropa va Nyu-York fan akademiyalari a'zosi,

- Amerika gastroenterologlar assotsiatsiyasi a'zosi sifatida qabul qilingan.

Halol mehnati, tinimsiz izlanishlari o'z natijasini berib, turli yillarda mukofot va faxriy yorliqlarini qo'lga kiritgan. AQSH, Shimoliy Karolina shtati Biografik institutining oltin medali, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining faxriy yorlig'i, Sog'liqni saqlash vazirligining "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni, Rossiya Tibbiy-texnika fanlar akademiyasining ko'krak nishoni, Fransiyaning "Avitsenna" assotsiatsiyasi mukofoti, O'zbek-Amerika-Chikago assotsiatsiyasining mukofoti va faxriy yorlig'i, Isroildagi "Xalq tabobati" markazining faxriy medali, Turkiyaning Baxcheshexir universiteti va LIV hospitali mukofoti hamda faxriy yorlig'i, Fransiya Fanlar akademiyasining "Tibbiyotda katastrofalarni bartaraf etish" medali, Buxoro viloyati hokimligining mukofoti, Ibn Sino jamoat fondining mukofot va faxriy yorliqlari bilan



Professor  
Zokirxo'jayev Sherzod Yahyoyevich

taqdirlanib, mehnatlari hamisha e'tirof etib kelingan.

Professor Sherzod Yahyoyevichning ilmiy yo'nalishlari ko'p qirrali bo'lib, terapiya, gastroenterologiya, klinik immunologiya, diyetologiya, kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzi, xalq tabobati va Abu Ali ibn Sino merosini o'rganishga qaratilgandir.

Shogirdlar masalasida – 4 nafar fan doktori, 6 nafar fan nomzodi, qator klinik ordinator va magistrnlarni tayyorlagan, hozirda ham bir qancha shogirdlarga rahbarlik qilmoqda.

Iqtidorli pedagog, salohiyatli olim, el tanigan shifokor, 1-son ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasini professori Sh.Zokirxo'jayev hozirda ilmiy, pedagogik, shifokorlik va jamoatchilik faoliyatini faol davom ettirayotgan haqiqiy ma'nodagi kamil insondir. U kishi o'zlarida odamiylik, poklik, mehrlilik, muruvvatlilik, bag'rikenglik, saxiylik, rostgo'ylik, oilanavislik kabi ko'pdan-ko'p fazilatlarini joy qila olgan.

So'zimizni muxtasar qilar ekanmiz, necha minglab talabalarga ilm chashmalarini targ'ib etayotgan hamda necha minglab xasta dillarga shifo taratayotgan shifobaxsh qo'llaringiz aslo tolmasin, muhtaram ustoz, deb qolamiz.

**Alijon Zohidiy,  
O'zbekiston yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi, akademik**



*Qadr – insonni yuksaklikka  
ko'taradi.*



## ILMIY MAKTAB ASOSCHISI VA FIDOYI USTOZ

*Hamidulla Magzumovni Toshkent tibbiyot akademiyasida hamma yaxshi taniydi. Kimdir «Farzandimga ilm bergan ajoyib ustoz», deya izzatlasa, boshqa birov «Biz u kishi yozgan kitoblarini o'qib odam bo'lganmiz», deya mualliflik ishlariga hurmat bildiradi. Aslida TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida dotsenti Hamidulla Magzumov bu chin dildan aytilgan va aytilayotgan e'tiroflarning bariga loyiq inson.*

H. Magzumov 1946-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent. U 1969-1970-yilgacha 1-klinik kasalxonada - vrach-terapevt, 1970-yildan ToshDavMI shogird-izlanuvchi, 1972-yildan aspirant, 1975-yildan yuqumli kasalliklar kafedrasida assistent, katta-o'qituvchi, dotsent vazifalarida ishlab kelmoqda. 1975-yili nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. O'rta Osiyo iqlimida o'tkir ichak yuqumli kasalliklarni profilaktikasi, diagnostikasi va davolash usullarini o'rganish bo'yicha ilmiy ish olib bordi. Salmonelloz kasalliklarini qo'zg'atuvchi omillarini inson va hayvonlarga yuqishi, epidemiologik jarayonni o'rganish va yuqumli kasalliklarning oldini olish choratadbirlarini ishlab chiqishda o'z hissasini qo'shdi. So'nggi yillarda aholi va hayvonlar o'rtasida keng tarqalgan brutsellyoz kasalligini laboratoriya, klinik va tajriba sharoitlarida o'rganib, uning kelib chiqishi, patologik jarayonni kechishi hamda surunkali turiga o'tishi bilan davolash usullarini tatbiq etish va remissiya davrini uzaytirish muammolari bilan shug'ullanib kelmoqda. 160 dan ortiq ilmiy maqolalar, bitta monografiya, 4 ta o'quv qo'llanma ikki qismlik (1-2 chast) Infektsionnie bolezni s detскими infektsiyami, Abdig'afor Gadayev tahriri ostida yozilgan umumiy amaliyot vrachlari uchun ma'ruzalar to'plamiga hammuallif va o'zbek tilida infeksiyon kasalliklar

darsligi mualliflar jamoasidan o'rin olgan, 5 elektron o'quv darsligi, 10 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma, 20 dan ortiq talabalar uchun ma'ruza matni yaratgan. 1981-yilda sanitariya-gigiyena fakultetida dekan muovini, 1990-yildan 2005-yilgacha davolash fakultetida, 2005-yildan 2015-yilgacha tibbiy pedagogika (kasb ta'lim yo'nalishi) fakultetlarida katta kurslar bo'yicha dekan muovini vazifasida ishlab kelgan. Dekan muovini lavozimida ishlayotgan davrida 10 dan ortiq talabaning Ibn Sino, 3 nafar talaba Prezident stipendiyasi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti g'olibi bo'lishiga hissa qo'shdi. U rahbarlik qilayotgan kurs talabalar AQSH, Janubiy Koreya, Angliyadagi nufuzli Universitetlarda malakalarini oshirib kelgan.

Shular bilan bir qatorda o'qish, ilmiy ishlardan tashqari talabalar orasida fizkultura va sportga e'tibor berib, institut shahar, Respublika, xalqaro va Sidney Olimpiadasi ishtirokchilarini yetishib chiqishga hamda talaba-yoshlarni ma'naviy barkamol, kasbga sadoqatli bo'lib kamol topishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

1984-yilda jamoat ishlarida faol qatnashgani uchun Hukumat Faxriy yorligi, bir necha marotaba Sog'liqni saqlash va Oliy ta'lim vazirliklari tomonidan Faxriy yorliqlari, O'zbekiston Respublikasi "Sog'liqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan (2011) taqdirlangan. Oilali. 3 nafar farzand, 12 nafar nabiraning



Dotsent  
Magzumov Hamidulla  
Bashirovich

bobosi. U to'g'riso'z, kamtarin, mohir pedagog va ustoz-olim, ma'naviy yetuk, o'z hamkasblari, talabalarga doimo mehribon va gamxo'r hamda ular orasida obro'ga ega.

Darhaqiqat, Hamidulla Magzumovni otasi Bashir Hikmatullayevich tibbiyot fanlari doktori, professor maqomiga ega bo'lib, uzoq yillar ToshMI dargohida faoliyat olib borgan. Onasi Muborakxon Magzumova oila shifokori, rafiqasi Gavhar Magzumova shifokor pediater, o'g'illari Ilhomjon Magzumov jarroh, dotsent, Bahrom Magzumov dotsent, Rustam Magzumov xalq xo'jaligida halol mehnat qilib kelishmoqda. Bir so'z bilan aytganda shifokorlar sulolasi, shifokorlar oilasi, Magzumovlar xonadoniga hamma havas bilan qaraydi va qarab kelmoqda.

Hamidulla aka nihoyatda pokiza, kamtarin, xayrli va ezgu ishlarini sadoqat va shijoat bilan amalga oshirayotgan millatparvar insondir. Halol mehnat, pokiza qalb, o'tgan kunlarga shukronalik, insoniy-ma'naviy odob-axloqni tinmas targ'ibotchisi, o'zi esa barcha insoniy fazilatlar bo'yicha hammaga ibrat bo'luvchi ustozdir. Baxtimizga omon bo'ling, har doim yoru do'stlar e'zoi va el ardog'ida yuring. Biz sizdek ustozning borligidan faxrlanib, Sizga omad va yangidan yangi yutuqlar tilaymiz.

**Qutbiddin NIZOMOV,**  
Turon xalq yozuvchisi



*Insonni qadrlash orzu-intilishlarga,  
maqsad-maslaklarga, oliyanoblikka  
yetaklaydi.*



## ILM-FAN SOHASIGA BEQIYOS HISSA QO‘SHGAN SOHA FIDOYISI



**Professor  
Asadullayev Maqsud Mahmudovich**

M.Asadullayev 1946-yili Toshkent shahrida tug‘ilgan. 1964-yilda Toshkent Davlat meditsina institutiga o‘qishga kirdi va 1970-yilda imtiyozli diplom bilan tugatib, SSV ko‘p tarmoqli shifoxonasida avval vrach-nevrolog so‘ng bo‘lim mudiri vazifasida ishladi. 1974-yilda dissertatsiya yoqlab, meditsina fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘ldi. 1974-1980-yillarda ToshDavMI nevrologiya kafedrasida assistenti lavozimida ishlab institut jamoat ishlarida o‘zini fidoyi mehnati bilan faol qatnashdi.

1980–1988-yillarda “Sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari ITI”da katta ilmiy xodim so‘ng laboratoriya mudiri lavozimida ishlab, 1987-yilda Moskvada meditsina fanlar akademiyasi «Mehnat gigiyenasi va kasb kasalliklari» institutida dissertatsiyani muvaffaqiyatli yoqlab, tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga erishdi. 1988-yildan boshlab ToshDavMI nevrologiya kafedrasida professori lavozimida ishlay boshladi va 1988-yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi. 1989-yildan 2005-yilgacha 2-ToshDavTI, 2005–2008-yilgacha TTA asab kasalliklari kafedrasida mudir so‘ng professorlik lavozimida ishlab o‘quv, o‘quv-uslubiy va ilmiy hamda amaliy tibbiyot tizimida, ya‘ni Toshkent shahar SSB bosh nevrologi vazifasini sidqidildan bajardi. M.Asadullayev tomonidan “Asab kasalliklari propedevtikasi” va “Xususiy nevrologiya” elektron darsliklari 1991-yildayoq o‘zbek va rus tillarida, shuningdek, 21 o‘quv uslubiy qo‘llanmalar yaratildi, o‘quv tizimi nevrologiya fani bo‘yicha uning rahbarligida izchil reforma qilindi.

Qayd qilish lozimki, domla ayni kunlarda talabalar uchun asosiy darslik hisoblangan “Asab kasalliklari propedevtikasi” (2008) muallifidir. Uning rahbarligida nevrologiyaning muammoli jumboqlariga asoslangan 35 ta ilmiy dissertatsiyalar muvaffaqiyatli yoqlanib, natijada 29 fan

**Respublika oliy ta‘lim va tibbiyot tizimidagi ko‘p sonli iqtidorli xodimlari qatorida M.Asadullayevni tajribali va fidoyi pedagog va shifokorlardan biri sifatida e‘tirof etish mumkin. Vatanimizga xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlash va “asab kasalliklari”ning dolzarb muammolarini hal qilishda samarali mehnat qilib kelmoqda.**

nomzodi, 6 fan doktoridan ya‘ni olimlardan iborat ilmiy maktab shakllangan va ular bir xil fikrlovchi yirik ilmiy va tibbiy kuchga aylangan.

O‘quv, o‘quv-uslubiy, ilmiy va davolash ishlari doimo yuksak e‘tirof etilib, mehnatlari mukofotlanib kelingan. 2012–2018-yillarda Toshkent shahar SSB bosh nevrologi vazifasini sidqidildan bajardi. Uning rahbarligida butun jahonda, ayniqsa O‘zbekistonda ijtimoiy muammo hisoblangan “Bosh miya insulti” kasallanishi, nogironligi, ayniqsa o‘lim ko‘rsatkichlari jilovlandi. M.Asadullayev va 11 kishidan iborat tuman Bosh nevrologlari bilan birgalikda “Bosh miya insulti maktabi” tashkil qilindi. Har haftada 4 tadan o‘quv “master klass” va seminarlari tashkil qilinib, 6 yil davomida ularni insult diagnostikasi, ishemik va gemorragik insult differensial diagnostikasi, zamonaviy laborator va nevrovizualizatsion kriteriyalari, davolash prinsiplari va nihoyat birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi profilaktikasi asoslari o‘rganilib, har yil so‘ngida sinov o‘tkazildi. 6 yil mobaynida tinimsiz olib borilgan tinimsiz mehnat o‘z samarasini berdi.

Qizig‘i shundaki, insult qon aylanish kasalliklari guruhiga kirgan bo‘lib, ayni ushbu kasalliklar nafaqat O‘zbekiston, balki jahonda insoniyat hayotiga xavf tug‘dirayotgan, kundan kunga ko‘payib borayotgan dolzarb muammodir. Yana shunisi ma‘lumki qon aylanish tizimi kasalliklarini 32,7% serebrovaskulyar kasalliklarga tegishlidir. 2015-yil ko‘rsatkichi bo‘yicha respublika va boshqa viloyatlar bo‘yicha jami qon aylanish kasallanish ko‘rsatkichlari ko‘payish tendensiyasiga ega bo‘lgan holatda kamaytirishga erishilishiga M.Asadullayev bosh bo‘ldi.

Bugungi kunda insoniyat o‘limining asosiy sababchisi hisoblangan qon aylanish kasalliklari (insult va infarkt) kasallanishi, o‘limi va nogironligi boshqa barcha kasalliklar ko‘rsatkichlaridan ustunligi va o‘lim ko‘rsatkichi yosharish tendensiyasini mavjudligi professor tomonidan taklif qilingan fundamental loyiha “Multifokal ateroskleroz va qon aylanish kasalliklari (uyqu va yon bosh arteriyalari aterosklerozi) Klinik biokimyoviy va patogenetik muammolari, nevrologik, psixiatrik, suyak bo‘g‘im asoratlari, davolash” FM 20230414707 Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan e‘lon qilingan tanlovda g‘olib bo‘ldi va

o‘z ishini boshladi. Loyiha O‘zbekiston FA institutlari Urologiya va patanatomiya markazlari, RTShYoIM, V.Vohidov nomidagi RIXIATM bilan hamkorlikda jarrohlik muolajasi jarayonida olingan aterokalsinoz (AKZ) pilikchani hamda soch tolasini, timnoq, qon zardobi, siydik va miya to‘qimasi kimyoviy tarkibiga sifat va son ko‘rsatkichlarini aniqlab, ateramatoz pilikchani gemodinamik stenoz chaqiruvchi 4 davrini davolash asoslarini yaratishga bag‘ishlangan.

Bu va boshqa izlanishlar, tinimsiz harakat, ilmiy ishlardan ko‘zlangan maqsad zudlik bilan xalqimizni qirib yuborayotgan aterosklerozga qarshi kurashishi hayotiy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Jamoat ishlarida faol bo‘lgan ustoz ko‘p martalab akademiya, kafedra va vrachlar konferensiyalari, respublika televideniyesi orqali, xalqaro kongresslar, yig‘ilish, davra suhbatlari, talabalar yotoqxonalarida “Asab kasalliklari” klinik diagnostik va davolash muammolari bo‘yicha ko‘p martalab chiqishlar va ma‘ruzalar qilgan.

Professor M.Asadullayev o‘zining ilmiy hamda pedagogik faoliyati davrida yangilikka intiluvchan, mas‘uliyatli, o‘z kasbini sevuvchi, notiqlik san‘ati o‘ta rivojlangan, auditoriyani o‘ziga rom qiluvchi, yuqori professionalizm shakllangan, vijdonli, avvalambor o‘zi va albatta talabalariga hamda xodimlarga nisbatan namuna ko‘rsatgan ustozdir. O‘zining pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib bormoqda. Fidoyiligi, mehnatsevarligi bilan hamkasblari, talaba va magistrantlar, ko‘p sonli umumiy amaliyot shifokorlari, tez yordam vrachlari, poliklinika va kasalxonalar nevrologlari hamda reanimatologlar, shuningdek, mahalladoshlar o‘rtasida hurmat qozonganini alohida ta‘kidlash joiz. M.Asadullayevning ilm-fan sohasiga qo‘shgan hisssasi, shogirdlar tayyorlashdagi qimmatli o‘g‘itlari tahsinga sazovor. So‘zimizni nafaqat O‘zbekiston, balki jahon tibbiyotiga insonlar salomatligini asrash yo‘lida olib borayotgan izlanishlari bilan ulkan hissa qo‘shgan, Akademiya nufuzini jahon ilmi ahkomlari oldida beqiyos oshirgan ulug‘ olimimizni umrlari uzun bo‘lsin, deya yakunlaymiz.

**Qutbiddin NIZOMOV,  
“Abdulla Qodiriy” ko‘krak nishoni  
sohibi**



*Qadr etgan qadr topadi.*





**Professor  
Saidqoriyev Berdimurod  
Komiljonovich**

1941-yili Toshkent shahrida tavallud topgan B.Saidqoriyev 90-o'rta maktabni tamomlab, Toshkent davlat tibbiyot institutining davolash fakultetiga o'qishga kirdi.

Tibbiyot institutini 1964-yilda muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent shahridagi 28-sonli poliklinikada o'z ish faoliyatini boshladi. 1965-yilda esa Toshkent tibbiyot institutining gistologiya kafedrasiga assistent qilib o'tkazilib, ushbu kafedrada 1975-yilga qadar faoliyat olib bordi.

Xayrixohlik, yuqori mas'uliyatlilik natijasida 1971-yilda tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun ilmiy ishini himoya qilib, 1973-yilda katta ilmiy xodim unvoniga tasdiqlandi. 1975-yilda ToshDavTI 1-davolash fakulteti akusherlik va ginekologiya kafedrasiga assistentlik lavozimiga o'tkazilib, shu davrdan boshlab Berdimurod Saidqoriyevning mehnat faoliyati amaliyot bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Turli yillarda akusherlik va ginekologiya kafedrasida dotsenti, mudiri hamda 2005-yilgacha ushbu lavozimda faoliyat olib bordi.

Shu yili 1- va 2-Toshkent tibbiyot institutlarining reorganizatsiyasi munosabati bilan Toshkent Tibbiyot Akademiyasining USh akusherlik

## SAMIMIYLIK VA XALQQA YAQINLIK — HAYOTIY SHIORI

***Mamlakatimiz ajoyib shifokorlarga boydir. Ularning ko'pchiligini nomi tibbiyot tarixiga kirgan, ular o'z burchi, o'z kasbi, Vataniga sadoqatli xizmat qilish namunasi hisoblanadi. Ana shundaylardan biri Saidqoriyev Berdimurod Komiljonovich hisoblanadi.***

va ginekologiya kafedrasiga dotsent qilib o'tkazildi va u yerda 2011-yilga qadar ish olib bordi. O'sha yili kafedra tarkibidagi mehnat faoliyatini yakunlab, shu kunga qadar maslahatchi shifokor sifatida ish olib borib, qanchadan qancha murakkab va asoratli holatlarda bemorlarga yordam ko'rsatib kelmoqda.

Berdimurod Komiljonovich o'z mehnat faoliyati davomida ko'plab ilmiy va o'quv ishlarini samarali olib bordi, jumladan kafedrada turli yillar mobaynida 4-, 5-, 6-kurs talabalari va subordinatlar tahsil oldi. O'quv jarayonlarini tashkillashtirgan, akusherlik va ginekologiya bo'yicha turli mavzularda ma'ruzalar o'qigan hamda davlat imtihonlarida qatnashgan. Uning boshchiligida 70 dan ortiq klinik ordinatorlar tayyorlangan.

Turli yillarda kafedra 2, 5, 6, 7, 9-shahar tug'ruqxonalari va Pediatriya ilmiy-tekshirish institutining tug'ruq bo'limlari tarkibida ish olib borib, kafedra xodimi va mudiri sifatida davolash ishlarini tashkillashtirgan. Ko'plab akusherlik va ginekologik jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli ravishda o'tkazib, kafedra va tug'ruqxona xodimlariga jarrohlik amaliyoti texnikalarini o'rgatgan, klinik konferensiyalarni yuqori saviyada olib borgan.

Bundan tashqari, turli yillarda kafedra Respublikaning Jizzax, Xorazm, Surxondaryo kabi viloyatlarini davolash va profilaktika masalalari bo'yicha

otaliqqa olgan bo'lib, bu davrlar mobaynida Berdimurod Komiljonovich ko'plab klinik konferensiyalarni o'tkazgan, ma'ruzalar o'qigan hamda mahalliy shifokorlarni akusherlik va ginekologik operatsiyalar texnikasiga o'rgatish bo'yicha ko'rgazmali jarrohlik amaliyotlarini bajargan.

Ustozimizning amaliy tibbiyot sohasida tutgan o'rni ham beqiyosdir. Uning qo'l ostida qanchalab ayollar sog'lom onalik va bolalik tuyg'ularini his qilishga muvaffaq bo'lgan.

Tibbiyot institutida mehnat qilish jarayonida jamoatchilik vazifalarini ham olib borgan. Jamoatchilik ishlarini olib borishdagi samarali mehnatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ko'plab mukofotlari, tashakkurnoma va maqto'v yorliqlari bilan taqdirlangan.

Berdimurod Komiljonovich rahbarligi ostida 7 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. U tomonidan 121 ta ilmiy maqolalar chop etilgan, jumladan 1 ta darslik, 4 ta amaliy shifokorlar uchun qo'llanma hamda 8 ta ilmiy-omtabop nashrlar muallifidir.

Tajribali pedagog va ustoz, o'ta kamtar inson, o'z kasbining haqiqiy fidoyisi va chuqur bilim sohibi B.Saidqoriyev bugungi yoshlarimiz, yetishib kelayotgan mutaxassislarimiz uchun chin ma'nodagi namuna timsolidir.

**Dilbar NAJMUTDINOVA,  
tibbiyot fanlari doktori,  
professor**



*Xotira bor ekan – millat barhayot.*



## OLIM – JAMIYATNING KO'MAKCHISI

***Tinib-tinchimaydigan, izlanuvchan, bilim olishga intiluvchan, olgan bilimni boyitib, charxlab turadigan insonlar o'z mehnatlari bilan e'tirofu ehtiromga sazovor bo'lishadi. Professor Shayxova Xolida Erkinovnani ham ana shunday insonlar sirasiga kiritish mumkin.***

Shayxova Xolida Erkinovna 1977-yilda Toshkent Davlat tibbiyot institutining davolash fakultetini a'lo baholar bilan tugatgan. O'sha yili klinik ordinaturaga o'qishga kiradi va uni 1979-yilda tugatadi. 1979-yildan 1982-yilgacha Toshkent Davlat tibbiyot institutining LOR kasalliklari kafedrasida aspiranturada o'qigan va 1985-yilda Moskvada "Maksiller sinuslarning surunkali yallig'lanish kasalliklarida immunitet tizimining diskret-dinamik tahlili" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Mehnat faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz turli yillarda Toshkent Davlat tibbiyot instituti Markaziy ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriyasida kichik ilmiy xodim, LOR kasalliklari kafedrasida assistent, 1993-yildan ikkinchi Toshkent tibbiyot instituti kafedrasida dotsent bo'lib ishlaganini ko'rishimiz mumkin. 1996-yildan 1999-yilgacha doktoranturadan o'tdi va 2001-yilda "O'rta quloqning yiringli-yallig'lanish kasalliklarida limfotrop va lazer terapiyasining klinik-eksperimental asoslanishi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Tinimsiz harakat, o'z ustida ishlash natijasida 2002-yildan boshlab LOR kasalliklari kafedrasida professori, 2011-yildan 2014-yilgacha esa Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya kursi bilan Otorinolarologiya kafedrasida mudiri bo'lib ishladi. U jurnal va to'plamlarda 120 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar chop etgan. X.Shayxova

ko'plab Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar, simpoziumlarda ishtirok etdi.

Ustoz otorinolarologiya sohasida malakali mutaxassis bo'lib, otorinolarologiyaning barcha sohalarida keng qiziqishlarga ega, ammo o'zi uchun surdologiya va rinologiyani ustuvor deb tanladi. 2011-yildan O'zbekiston shifokorlar Assotsiatsiyasining Otorinolarologiya bo'limi raisi va O'zbekiston shifokorlar assotsiatsiyasi Prezidiumi a'zosi hisoblanadi. U tomonidan xalqaro mutaxassislar ishtirokida mahorat darslari tashkil etildi, shuningdek, uning rahbarligida Otorinolarologlarning IV Respublika Qurultoyi (2015) va Buxoro shahrida konferensiya (2017) o'tkazildi. Otorinolarologlar jamiyati majlislari, Respublika va xorijning yetakchi mutaxassislarini (Rossiya, Turkiya, Germaniya, Koreya va boshqalar) jalb etgan holda muntazam o'tkazilgan mahorat darslari, seminarlar ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otadi.

Shu o'rinda X.Shayxova kafedra va Akademiyaning ijtimoiy tadbirlarida faol ishtirok etishini alohida ta'kidlash joiz. Otorinolarologiya kafedrasida o'quv jarayoni, ilmiy ishlar uchun mas'ul, magistratura dasturi direktori, 2005-yildan 2011-yilgacha Akademiyaning xalqaro bo'limi boshlig'i, TMA rektorat va ilmiy Kengashi a'zosi bo'lib ishlagan. Kongresslar, anjumanlar,



**Professor  
Shayxova Xolida Erkinovna**

konferensiyalarda ma'ruzalar bilan qatnashib, o'zining amaliy va ilmiy-nazariy bilimlarini muntazam ravishda takomillashtirib boradi. 2015-yildan professor X.Shayxova "Umumiy amaliyot shifokori axborotnomasi" jurnalining bosh muharriri, shuningdek "O'zbekiston shifokorlar assotsiatsiyasi axborotnomasi" jurnalining tahririyat a'zosi hisoblanadi.

Mehridaryo ustozning shogirdi bo'lish qalblarda iftixor tuyg'usini uyg'otadi. Olimaning ilmiy faoliyati, ayniqsa yoshlar, talabalarni qiziqtiradi. Professor X.Shayxova jamoada hurmat va e'tirofga sazovor. U qat'iyatlilik, ishdagi prinsiplar va tashabbuskorlik, boshqalarga va hamkasblariga nisbatan sezgirlik va mehribonlik bilan ajralib turadi.

Xolida Erkinovna ajoyib ona va buvi bo'lib, har doim o'z yaqinlariga g'amxo'rlik, e'tibor va muhabbat ko'rsatadi. Ona sifatida u har doim farzandlariga yordam beradi, qo'llab-quvvatlab, eng yaxshi fazilatlariga ega bo'lishi, yurt koriga yaraydigan insonlar etib tarbiyalagan. Hozir ham o'zining nasihatlarini bilan farzandlariga bosh bo'lib kelmoqda.

**Fotima IRSALIYEVA,  
tibbiyot fanlari doktori,  
professor**



***Inson, millat va xalq tarixiy xotira  
tuyg'usi bilan barhayotdir.***



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI  
(2025-yil aprel)**

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1	1-son ichki kasalliklar propedevtikasi	kafedra mudiri
2	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	dotsent
3	1-son travmatologiya, ortopediya va HDX	assistent
4	Onkologiya	assistent
5	Klinik modellashtirish	assistent
6	Psixiatriya va narkologiya	assistent
7	Normal va patologik fiziologiya	assistent
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
8	Odam anatomiyasi va OXTA	katta o'qituvchi
9	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklari	assistent
10	Klinik farmakologiya	katta o'qituvchi
11	Dermatovenerologiya va kosmetologiya	katta o'qituvchi
12	2-son umumiy xirurgiya	assistent
13	Tibbiy radiologiya	katta o'qituvchi
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti</b>		
14	Bolalar kasalliklar propedevtikasi	assistent
15	Yuz-jag' jarrohligi va stomatologiya	assistent
16	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	assistent
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
17	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti</b>		
18	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent
19	Jamoat salomatligi va menejment	assistent
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
20	Akusherlik va ginekologiya	katta o'qituvchi
21	Vrachlar malakasini oshirish	katta o'qituvchi
22	1-son fakultet va gospital xirurgiya	assistent
<b>Xalqaro fakultet</b>		
23	Tibbiy va biologik kimyo	assistent
24	O'zbek va xorijiy tillar	o'qituvchi

**Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati va kasaba uyushmasi Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi dotsenti Urazaliyeva Ilmira Ravkatovnaning otasi

**Anarbayev Ravkat Ergashevichning**  
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor qiladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati va kasaba uyushmasi 8-talabalar turar joyi tarbiyachi pedagogi Toshboyev Botirali Yunusaliyevichning ukasi

**Risqiboyev Nurali Sotvoldiyevichning**  
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor qiladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati va kasaba uyushmasi kadrlar bo'limi bosh mutaxassisi Gappurova Mariyam Abduvaliyevnaning otasi

**Usmonov Abduvali Xayritdinovichning**  
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor qiladi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorati va kasaba uyushmasi 1-son Travmatologiya ortopediya va harbiy dala jarrohligi kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor Karimov Murodulla Yuldashevichning validai muhtaramasi

**Karimova Nozimaxon Raximovnaning**  
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor qiladi.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abdudqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiyasi RIZOGRAFI'da  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilizim:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun mas'ul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi